

SO'ROQ GAPLARNING STRUKTURAL TASNIFI

Zahro Mamadaliyeva

Farg'onan davlat universiteti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15346692>

Annotatsiya. So'roq gaplarning struktural tashkiloti qilinadi. So'roq gaplarning turli strukturalari va ularning lingvistik tizimdag'i o'rni ko'rib chiqiladi. So'roq gaplar, tilshunoslikda nafaqat axborot olish vositasi sifatida, balki muloqotda ijtimoiy va psixologik aspektlarni aks ettiruvchi muhim vosita sifatida o'rganiladi. So'roq gaplarning sintaktik tashkiloti, semantik jihatlari va ularning kommunikatsion funktsiyalari batafsil tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: So'roq gap, Struktura, Sintaksis, Semantika, Bilvosita so'roq.

STRUCTURAL CLASSIFICATION OF INTERROGATIVE VERBS

Abstract. The structural classification of interrogative sentences is analyzed. The various structures of interrogative sentences and their place in the linguistic system are considered. Interrogative sentences are studied in linguistics not only as a means of obtaining information, but also as an important means of reflecting social and psychological aspects in communication. The syntactic organization, semantic aspects of interrogative sentences and their communicative functions are analyzed in detail.

Keywords: Interrogative sentence, Structure, Syntax, Semantics, Indirect question.

Kirish

So'roq gap so'zlovchi uchun noma'lum bo'lgan biror predmet, harakat-holat, belgi haqidagi so'roq ifodalananadi. So'roq gaplar kutiladigan javob xarakteriga ko'ra bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikki guruhga bo'linadi: Birinchi guruhga tasdiq yoki inkor talab qiladigan so'roq gaplar kiradi. Bunda so'roq gap so'roq olmoshlarisiz, intonatsiya yoki so'roq yuklamalari orqali hosil qilinadi. Gap tarkibida so'zlovchi uchun noma'lum bo'lgan narsa, voqe'a-hodisa nomi uchraydi. Bunday so'roq gaplar ko'proq -mi yuklamasi yordamida hosil bo'ladi. Ular badiiy, publitsistik, ilmiy, so'zlashuv uslublariga oid adabiyotlarda keng qo'llaniladi. -chi so'roq yuklamasi yordamida tuzilgan so'roq gaplar esa so'zlashuv nutqi uchun xarakterli bo'lib, ko'proq to'liqsiz gaplar tarkibida qo'llaniladi. -a yuklamasi yordamida tuzilgan so'roq gaplar ham so'zlashuv nutqiga xos bo'lib, to'liq gaplar tarkibida ham, to'liqsiz gaplar tarkibida ham qo'llanaveradi. Bu yuklama ba'zan mustaqil holda ham so'roq gap bo'lib kelishi mumkin. Bu so'zlovchi tinglovchi fikrini eshitmay yoki anglamay qolganda yuz beradi:

masalan, -A?- dedi eshon ko‘zlari baqrayib. Nahotki yuklamasi taajjub ifodalagan so‘roq gaplar tarkibida keladi. Bunday gaplar ko‘proq badiiy, publitsistik, so‘zlashuv uslublarida qo‘llanadi.

Intonatsiya yordamida tuzilgan so‘roq gaplar ham so‘zlashuv nutqiga xos bo‘lib, ular tarkibida shekilli, chog‘i kabi so‘zlar ham keladi. Bunday so‘roq gaplarda taxmin, guman ottenkasi bo‘ladi. Bundan tashqari nutqda ba’zan so‘zlovchi so‘roq javobini kutmasdan o‘zfikrini davom ettiradi. Bu vaqt javob matn va vaziyatdan anglashilib turadi:

Endi buyoqqa qara; huv anavi madrasani ko‘rdingmi? Huv ana. Anashu yerdan o‘tasan-u, tuyulishga chiqasan.

So‘roq gap tarkibida birdan ortiq so‘roq olmoshlari ishtirok etishi ham mumkin. Bunda so‘zlovchiga noma'lum bo‘lgan bir qancha narsa haqidagi so‘roq ifodalanadi. *Kim nima to‘g‘risida gapirmoqchi?* So‘roq gaplar tarkibida qani? Olmoshi yordamida ham hosil qilinadi. Bunday gaplarda, odatda, plmoshning ma’nosi qayerda so‘rog‘iga ma’nodosh bo‘ladi. Masalan, *Pullar qani? Ularni qayoqqa gumdom qilding? yoki Ukang qani?* (So‘zlashuvdan) Ba’zan qani so‘roq olmoshi kirish so‘z vazifasida kelib, ta’kidni kuchaytirish uchun xizmat qiladi: *-Qani, xo‘sh nimalar bo‘ldi? Kim nima dedi? Qani, ayt-chi?* Ba’zan so‘roq gaplar ketma-ket kelib, konkret javob talab qilmaydi. Ular faqat asar qahramonlarining ichki dunyosini to‘laroq ochish uchun, fikrni ta’sirchan ifodalash uchun xizmat qiladi. Bunday so‘roq gaplar badiiy, so‘zlashuv, publitsistik uslublarda ko‘p qo‘llanadi. Masalan: *Shohista!.. Bu qiz qayerda turadi? Men ko‘rsam bo‘ladimi?* kabi. So‘roq gaplar rasmiy yuridik matnlarda deyarli qo‘llanmaydi. Ilmiy uslubda so‘roqlarning qo‘llanish holati ancha keng va unumlidir. Matniy ko‘rinishlarda esa ba’zan tadqiqot ob’ektini aniq tasavvur eetish uchun yoki ba’zan o‘quvchining diqqatini biror masalaga tortish vositasi sifatida so‘roq gaplarga murojaat qilinadi. Masalan: *Buzga (muayyan) hodisaning qaysi tomonlari noma'lum?* *Yoki Tenglama deb nimaga aytildi?* So‘roq gaplar so‘zlashuv nutqida so‘roq intonatsiyasi bilan aytildi. Bunda so‘roq maxsus leksik-grammatik vositalar orqali ifodalansa, kuchli ohang bilan aytildi. Ohang ko‘tarilib boradi. Gap urg‘usining qaysi gap bo‘lagiga tushishiga qarab, ohang o‘zgarishi mumkin. Masalan logik urg‘u so‘roq gap boshidagi bo‘lakka tushsa, ohang pasayib boradi. Gap oxiridagi bo‘lakka tushsa, ohang ko‘tarilib boradi. Gap o‘rtasidagi bo‘lakka tushsa, ohang ko‘tarilib, so‘ng pasayadi. So‘roq olmoshlari yordamida tuzilgan so‘roq gaplarda ohang so‘roq olmoshida ko‘tariladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mansurova, X. (2007). O‘zbek tili sintaksisi. Toshkent: O‘qituvchi.
2. Rahmatullayev, A. (2003). O‘zbek tilining grammatikasi. Toshkent: O‘zbekiston
3. Mirzaahmedov, A. (1996). O‘zbek tili: morfologiya va sintaksis. Toshkent: Fan.
4. Shakirov, T. (2015). O‘zbek tili sintaksisining asosiy tamoyillari. Toshkent: O‘qituvchi.
5. Xudoyberanova, S. (2012). Tilshunoslikka kirish. Toshkent: O‘zbekiston.